https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Bazarbayeva Uljan Sholibayevna
Toshkent davlat agrar universitetining ”Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar” fakulteti, Yurisprudensiya yo’nalishi 24 – 172 guruh, 2 – bosqich talabasi.
E-**pochta:***@uljanbazarbayeva.gmail.com.* **Tel:** *+998944051802.*

YANGI KONSTITUTSIYA – BARQAROR EKALOGIK TASHABBUSLARNING HUQUQIY KAFOLATI.

“Biz 2025-yilni Atrof-muhitni muhofaza qilish va “Yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qildik. Ishonchim komilki, bu tashabbus Konstitutsiyamizdagi ekalogik normalar va tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish uchun mustahkam zamin yaratadi. Tabiatni asrash – insonni asrash va kelajagimizni ta’minlash demakdir[1]*.”*

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog‘lom va xavfsiz, ekologik muhitda yashash huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, davlatning ekologik xavfsizlik borasidagi strategik majburiyatlari hamda fuqarolarning ekologik jarayonlarda ishtirok etish huquqlarining kengaytirilgan shakllari ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada dunyo tajribasi asosida barqaror rivojlanish va ekologik boshqaruvning konstitutsiyaviy kafolatlari o‘rganilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ularning amaliyotga tatbiq etilishi baholanadi. Shu bilan birga, **“Ekalogik Raqamli Pasportlash Tizimi”** deb nomlangan ekologik va ijtimoiy loyiha misolida aholining atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonidagi ishtiroki, ekologik ongni shakllantirishda samarali mexanizmlar, jamoatchilik nazorati, yashil hududlarni kengaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish kabi faoliyatlar konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqiladi.

[1] 1. https://gov.uz/O’zbekiston Respublikasi Hukumat Portali

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Kalit so'zlar: Konistitutsiya, Ekalogik raqamli pasportlash tizimi, xalqaro tajribalar, qonun, ekalogiya.

Abstract: This article discusses the constitutional strengthening of the right to live in a healthy and safe, ecological environment, the strategic obligations of the state in the field of environmental security, and the expanded forms of citizens' rights to participate in environmental processes on a scientific basis. The article studies the constitutional guarantees of sustainable development and environmental management based on world experience and evaluates their implementation in practice in the new Constitution. At the same time, on the example of an ecological and social project called **"Ecological Digital Passport System"**, activities such as the participation of the population in the process of environmental protection, effective mechanisms for the formation of environmental awareness, public control, expansion of green areas, and the introduction of energy-saving technologies are considered in harmony with constitutional legal guarantees.

Keywords: Constitution, Ecological Digital Passport System, international experience, law, ecology.

Аннотация: В статье рассматриваются конституционное закрепление права на жизнь в здоровой и безопасной экологической среде, стратегические обязательства государства в области обеспечения экологической безопасности, а также расширенные формы участия граждан в природоохранных процессах на научной основе. В статье исследуются конституционные гарантии устойчивого развития и природопользования на основе мирового опыта и дается оценка их практической реализации в новой Конституции. При этом на примере эколого-социального проекта **«Цифровая экологическая паспортизация»** рассматриваются такие мероприятия, как участие населения в процессе охраны окружающей среды, эффективные механизмы формирования экологического сознания, общественный контроль, расширение площадей зеленых насаждений и

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

внедрение энергосберегающих технологий в соответствии с конституционно-правовыми гарантиями.

Ключевые слова: Конституция, Цифровая экологическая паспортизация, международный опыт, право, экология.

Kirish.

Konstitutsiya har bir davlatning huquqiy asosini tashkil etuvchi eng muhim hujjatdir. U davlatning tuzilishi, fuqarolarning huquqlari va majburiyatlari hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab beradi. Konstitutsiya nafaqat davlat hokimiyati organlari faoliyatining tamoyillarini, balki fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, u jamiyatda barqarorlik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi. **Thomas Jeffersonning** ta’biri bilan aytganda, ***“Konstitutsiya xalqning yuksak g‘oyalarini, adolatni va erkinlikni ifodalaydi.”*** Shunday qilib, konstitutsiya davlat va jamiyat hayotining asosi sifatida, insonlarning erkin va farovon hayot kechirishida muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiya har bir davlat uchun huquqiy tizimning asosi va bosh qomusidir. U mamlakat ichida yashovchi barcha fuqarolar uchun yagona va umumiy qonun sifatida amal qilib, davlat organlari, jamiyat institutlari va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Konstitutsiya, avvalo, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlash, davlat hokimiyatining bo‘linishi hamda davlat boshqaruvining ochiqligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi Konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.[2]

Metodologiya.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **49-moddasida** quyidagi norma keltirilgan «Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi». Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga normalar yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.[3]

Ta’kidlash joiz, **so‘nggi uch yilda** qurilishlardan norozi bo‘lib, aholidan **15 mingta** murojaat kelib tushgan, sudlar tomonidan birgina Toshkent shahrida **200 dan ortiq** qurilishlar to‘xtatib qo‘yilgan, avtomobillar soni **1,3 millionga** ko‘payib, **3,6 millionga** yetgan, har yili atmosfera havosiga **2,2 million tonna** sanoat va transport tashlanmalari chiqarilayotgani ham ushbu masala tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat bermoqda.[4]

[2] 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi".
[3] 1. O’zbekiston Respublikasi Yangi Tahrirdagi Konstitutsiyasi.(30.04.2024)
[4] 2. FAO-Barqaror qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ma'lumotlar (https://www.fao.org)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Muhokama.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi belgilandi. Albatta, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha keng ko‘lamli islohotlarning asosiy maqsadi bu yurtdoshlarimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitlarini yaratishdir. Bunga mustahkam poydevor bo‘lib shubhasiz mamlakatimizda inson huquqlarining kafolati bo‘lmish Konstitutsiyamiz xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ***“Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz”***[5]. Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiyamizda **Yevropa, Osiyo, Sharq** va **Amerika** mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o‘z aksini topgan. Asosiy Qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko‘plab xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan sinchiklab o‘rganilgan bo‘lib, unga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalari qo‘shimcha ravishda uyg‘unlashtirilgandir. Ishonchimiz komilki, xalqaro tashkilotlar vakillari va

[5] 4. G‘ulomova Sh.B. "Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri — Yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari"

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

ekspertlar xolis va to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi Inson sha’ni va qadr-qimmati uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Takliflar:

Xususan, iqtisodiy rivojlanish bilan birga ekologik muammolar ham kuchayib bormoqda. Jahon Iqtisodiy Forumining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yil ichida global iqlim o‘zgarishi va ekologik ifloslanish iqtisodiy yo‘qotishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Global biznes vakili bo‘lgan Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) yashil iqtisodiyotni„iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo‘llab- quvvatlagan holda o‘zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot“ deb ta’riflaydi.

Bugungi kunda ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha yagona raqamli baza yo‘qligi, hududlar kesimida ma’lumotlarning tartibsizligi va aholi uchun yetarli ochiqlik mavjud emasligi ekologik boshqaruv samaradorligini pasaytirayotgan omillardandir. Ushbu maqolada ana shu muammolarga innovatsion yondashuv – “Ekologik Raqamli Pasportlash Tizimi” orqali yechim taklif qilmoqchiman. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sog‘lom atrof-muhitni ta’minlash kabi masalalarni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgiladi. Fuqarolarning ekologik axborotga ega bo‘lish huquqi va ekologik monitoringni takomillashtirish zarurati alohida qayd etildi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik ma’lumotlarning to‘plami, shaffofligi va o‘z vaqtida taqdim etilishi dolzarb masalaga aylandi. ERPT har bir tuman, shahar va hududning ekologik holatini raqamli shaklda baholovchi, sensorlar va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlariga asoslangan integratsion platformadir. Tizim orqali hududning havo sifati, suv havzalari holati, yashil hududlar ulushi, chiqindilar aylantirilishi, sanoat

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

korxonalari chiqindilari va biologik xilma-xillik darajasi real vaqt rejimida monitoring qilinadi.

➢ **Tizimning asosiy komponentlari:**

- **Havo sifati ko‘rsatkichlari** (AQI) – atmosfera havosidagi zararli moddalar darajasi.
- **Suv sifatining raqamli bahosi** – kimyoviy va biologik ifloslanish ko‘rsatkichlari.
- **Yashil hududlar ulushi** – har bir aholi soniga nisbatan yashil maydonlar indeksi.
- **Sanoat chiqindilari monitoringi** – **NO_2, SO_2, CO_2** emissiyalarni avtomatik o‘lchash.
- **Qayta ishlash koeffitsienti** – chiqindilarning qayta ishlangan qismi.
- **Biologik xilma-xillik indeksi** – o‘simlik va hayvonot dunyosi boyligi.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida hududlarga ekologik reyting berib boriladi.

Ilmiy tadqiqotlarda shaharlar ekologik xizmatlari (ecosystem services) qiymatini monitoring qilish uchun dinamik tarmoqli yondashuvi qo‘llanilgan. Masalan, **Haian** shahri (**Xitoy**)da shunday tahlillar bor. Bunday metodlar shahar ekologik holatini raqamli kartalar va qiymatlar orqali baholashda foydali hisoblanadi.

Xitoyda bir nechta shahar va hududlarda “**RSEI**” — to‘liq masofaviy zondlash (remote sensing) asosidagi ekologik indeks ishlatiladi. Masalan, **Fuzhou, Shanghai, Nanjing** kabi shaharlar **Landsat** tasvirlari yordamida “yashillik”, “namlik”, “qurg‘oqchilik”, “issiqlik” kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilinadi. Xitoyning RSEI modeli, **Singapur**ning **Smart Environment** tizimi, **AQSH** va Yevropa davlatlarining ekologik reytinglari — mazkur taklifning global amaliyotga mosligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, taklif etilgan tizimning o‘ziga xosligi shundaki, u mavjud yondashuvlardan farqli ravishda hududiy ekologik pasportlash, ochiq onlayn reyting va aholi ishtirokidagi crowd-monitoringni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

birlashtirgan kompleks platforma sifatida taklif qilinmoqda.[6] Yaqin paytda esa "**Continuous Remote Sensing Ecological Index (CRSEI)"** metodologiyasi ishlab chiqilgan, bu katta hududlarda ekologik holatni doimiy va obyektiv kuzatish imkonini beradi. Ko'p mamlakatlarda **"ekologik indeks + baholash"** ishlatiladi, lekin ushbu taklif qilinayotgan pasport shaklidagi, har bir tuman uchun real vaqt rejimidagi raqamli pasport va reyting modeli to'liq keng qo'llanilgani yo'q.

Ushbu "Ekalogik raqamli passportlash tizimi'' orqali mamlakat aholisi samarali foydalanishi hamda ekalogik muammolarga barham berishda ko'maklashish orqali ma'lum imtiyozlarga ega bo'ladi. AI sun'iy intellekt idroki asosida boshqariladigan huquqiy platforma har bir xonadon va tuman, viloyat yoki mamlakat ma'lum yerlariga joylashtirilib, ekalogik toza muhitni yaratishda yordamchi bo'la oladi. Ushbu platforma kerakli manzillarga o'rnatiladi va usha muhitning ekalogik holatini nazoratga oladi. Ish samaradorligi oshib borishi asnosida foydalanuvchi aholiga imtiyozlar va rag'batlar olib kelishi mumkin. Qanday rag'batlar va imtiyozlar berilishi mumkin degan savol tug'iladi;

- avvalo xonadon yoki ma'lum obyektning ekalogik holati samaradorligini nazorat qiladi;
- fuqarolarni bosh qomusimizda ko'rsatilgan atrof-muhitga bo'lgan majburiyatini eslatib turadi va yashil iqtisodiyot va ekalogiya tozaligi, sog'lom hayotga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi.

Xulosa. .

Ushbu maqolada taklif etilgan **"Ekologik Raqamli Pasportlash Tizimi"** ana shu konstitutsiyaviy vazifalarga javob beruvchi innovatsion va kompleks ekologik nazorat mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Loyiha hududlarning ekologik holatini real vaqt rejimida raqamli tahlil qilish, havo va suv sifatini doimiy monitoring qilish, sanoat chiqindilari ustidan avtomatlashtirilgan nazorat

[6] 5. Yurisprudensiya huquqiy ilmiy-amaliy jurnali 2023. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

o‘rnatish hamda yashil maydonlar ulushini aniq hisoblash orqali ekologik boshqaruvning yangi bosqichini shakllantiradi. Shuningdek, tizimning ochiq reyting mexanizmi hududlar o‘rtasida sog‘lom ekologik raqobat yaratadi, bu esa ekologik siyosat samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa o’rnida aytish joiz ki**,** Xuddi mana shunday yuqorida ta’kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo’lgan O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o’zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengilliklar yaratildi. Xususan, hozirgi globallashuv jarayonida mamlakatimizda barcha imkoniyat va barqaror yashil iqtisodiyot hamda ekalogik tashabbuslarni hayotga tatbiq eta olish imkoniyatlarimiz asosiy qonunimiz bo’lgan Konstitutsiya normalarida aks etishi bizga keng islohotlar zaminida yashayotganligimizdan darak beradi. Natijada, “Ekologik Raqamli Pasportlash Tizimi” O‘zbekistonda ekologik boshqaruvni modernizatsiya qilish, davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, turistlar va investorlar uchun ekologik jozibadorlikni oshirish hamda aholining ekologik ongini kuchaytirish imkonini beradi. Ushbu loyiha mamlakatning ekologik barqaror kelajagini ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik tashabbus bo‘lib, uni joriy etish Yangi O‘zbekistonning **“Yashil taraqqiyot”** yo‘nalishidagi muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Yangi Tahrirdagi Konstitutsiyasi.(30.04.2024)
2. FAO-Barqaror qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ma'lumotlar (https://www.fao.org)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi".
4. G‘ulomova Sh.B. "Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri — Yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari"
5. Yurisprudensiya huquqiy ilmiy-amaliy jurnali 2023. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.
6. https://gov.uz/O’zbekiston Respublikasi Hukumat Portali